



CULTURAL CENTERS: PURPOSE, OPERATING SYSTEM, AND EFFECTIVENESS (ON THE EXAMPLE OF MULTICULTURAL DEVELOPED COUNTRIES)

Oybek Ulugbekov

junior researcher

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: oybekulugbekov23@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: cultural centers, diasporas, cultural institutions, multicultural societies.

Received: 14.04.25

Accepted: 16.04.25

Published: 18.04.25

Abstract: This article explores the reasons behind the establishment of national cultural centers in Ushba, the creation of settlement and production complexes, as well as the mechanisms for preserving cultural diversity and accelerating social integration within ethnic communities. The material is based on an analysis of current academic literature, reports by non-governmental organizations, thematic research, and the practical experience of multinational organizations operating in this field.

The study aims to identify the prerequisites for the creation of these institutions, examine their organizational structures, and analyze their social roles. Through thematic and comparative analysis, the article identifies key factors contributing to the successful functioning of ethnic cultural centers. These include the production of goods that reflect the cultural heritage of various ethnic groups, the compact settlement of diaspora communities, and the incorporation of diverse cultural initiatives into the activities of these institutions.

Special attention is given to issues of national identity, the emergence of related problems, material representation, and mechanisms for strengthening interethnic solidarity. The article also analyzes potential challenges that cultural centers may face in the course of their work.

Additionally, the functional mechanisms of such institutions are examined, particularly their roles in expanding employment opportunities, fostering intercultural solidarity, reducing ethnic conflicts, and strengthening intercultural cooperation.

MADANIYAT UYLARI: MAQSADI, ISHLASH TIZIMI, VA SAMARADORLIGI (KO'P MADANIYATLI RIVOJLANGAN MAMLUKATLAR MISOLIDA)

Oybek Ulug'bekov

kichik ilmiy xodimi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: oybekulugbekov23@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: madaniyat uylari, diasporalar, madaniy markazlar, mult-madaniyatli jamiyatlar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada etnik madaniyat uylarining shakillantirish sabablar, rivojlanishi va samaradorligini tahlil qilish hamda ko'p millatli jamiyatlarda turli-xil madaniyatlarni saqlash va ijtimoiy integratsiya vositalarini jadallashtirishdagi mexanizmi ko'rib chiqiladi. Bu mavzuda olib borilgan tadqiqotlar asosida shakillangan adabiyotlarga asoslangan holatda, jumladan, ilmiy adabiyotlar, hukumat va nodavlat tashkilotlar hisobotlari va rivojlangan va ko'p millatli mamlakatlarning amaliy tadqiqotlariga tayangan holda tayyorlandi. Tadqiqot ushbu institutlarni tashkil etish sabablari, ularning tashkiliy tuzilmalari va ijtimoiy rollarini tahlil qiladi. Tematik va qiyosiy tahlil orqali maqola etnik madaniyat uylarining muvaffaqiyatiga hissa qo'shadigan asosiy xususiyatlarni aniqlaydi, masalan, turli xil etnoslar madaniyatidan kelib chiqqan holatda tadbirlar tashkil etish, diaspora vakillarini bir joyga jamlash singari ko'plab xususiyatlar o'rin olgan. Maqolada, shuningdek, ushbu muassasalar duch keladigan muammolar, xususan, madaniy vakillikni milliy birdamlik bilan bog'liq masalalarda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar ko'rib chiqiladi. Ish samaradorligi muvaffaqiyatli bo'lgan madaniyat uylari ish mexanizmi tahlil etilib, madaniyatlararo birdamlik qanday rivojlantirilishi, etnik nizolarni kamaytirilishi va ko'p madaniyatli hamkorlikni mustahkamlanishi mumkinligi haqida tushuncha beriladi.

КУЛЬТУРНЫЕ ЦЕНТРЫ: НАЗНАЧЕНИЕ, СИСТЕМА ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ, ЭФФЕКТИВНОСТЬ (НА ПРИМЕРЕ ПОЛИКУЛЬТУРНЫХ РАЗВИТЫХ СТРАН)

Ойбек Улугбеков

младший научный сотрудник

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

E-mail: oybekulugbekov23@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: дома культуры, диаспоры, культурные центры, мультикультурные общества.

Аннотация: В данной статье рассматриваются причины формирования национальных домов культуры в Ушбе, создание расселенческих и производственных комплексов, а также механизмы сохранения культурного многообразия и ускорения социальной интеграции в этнических сообществах. Материал подготовлен на основе анализа актуальной научной литературы, отчетов неправительственных организаций, тематических исследований и практического опыта многонациональных организаций, работающих в данной сфере.

Исследование направлено на выявление предпосылок создания этих институтов, изучение их организационных структур и анализ их социальной роли. Посредством тематического и сравнительного анализа определяются ключевые факторы, способствующие успешному функционированию этнических домов культуры. Среди них – производство продукции, отражающей культурное наследие различных этнических групп, компактное размещение представителей диаспоры, а также включение множества культурных инициатив в деятельность данных учреждений.

Особое внимание в статье уделяется вопросам национальной идентичности, возникающим проблемам, связанным с материальным представительством, и механизмам укрепления межэтнической солидарности. Также анализируются потенциальные вызовы, с которыми могут столкнуться дома культуры в процессе своей деятельности.

Дополнительно исследуется функциональный механизм работы таких учреждений, направленный на расширение занятости населения, развитие

KIRISH.

Bugungi globallashuv jarayonida turli-xil rivojlangan mamlakatlarga migratsiya safarlari ko'plab sonlarda amalga oshirib borilmoqda. Natijada bir qancha rivojlangan mamlakatlar, xususan, Kanada, Amerika Qo'shma Shtatlari hamda Buyuk Britaniya singari ko'plab mamlakatlarda muhojirlar soni ortib bormoqda [Lundborg et.al., 2000]. Ularning son jihatidan ko'payib borishi mahalliy jamiyatda o'ziga xos katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda va natijada mahalliy hukumatlar ham ularga alohida e'tibor qaratishmoqda [Craik., 2005]. Shu tariqa ular sekin asta o'z madaniyati va etnos asosida diasporalar shakillantirib borishmoqda. Hukumatlar esa ularni qo'llab quvatlab madaniyat uylarini tashkil etib berishmoqda. Ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlarning madaniyat uylarini shakillantirishdagi ish tajribalari hamda samarali mehnat faoliyatlari atroflicha tahlil qilinadi. Shu bilan birgalikda tizimida vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolar ham ko'rib chiqilib, ushbu muammolarning yechimi tahlil qilib chiqiladi.

Metodologiya.

Ushbu maqola dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi millatlararo do'stlik va hamjihatlikni shakillantiruvchi institutlarni samarali ishlarini tadqiq qilgan tadqiqotchilar yozgan adabiyotlarni o'rganish va ularni o'zaro taqqoslash asosida yozildi. Foydalanilgan adabiyotlarning barchasi asosan dunyoning rivojlangan mamlakatlari bo'lgan Kanada, Buyuk Britaniya hamda AQSh kabi mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar asosida shakillangan hamda madaniyat uylari, markazlar va ularni moliyalashtiruvchi tashkilotlar va ularning o'zaro hamjihatlikda ishlash mexanizimi, samarali mehnat faoliyati va uning sabablari tahlil qilib chiqildi. Maqolada tadqiqotchilar sifatli metodlar bo'lgan intervyu hamda ishtirokiy kuzatuv metodlari yordamida ma'lumotlarni taqdim etgan. Mavjud maqolalarni tahlil qilishning asosiy sabablaridan biri bu bevosita yuqorida qayd etib o'tilgan mamlakatlarning O'zbekistondan olisda ekanligi va to'g'ridan-to'g'ri dala tadqiqotlari olib borishning nisbatan qiyin ekanligi bilan bog'liq. Rivojlangan mamlakatlarni misol qilib olishdagi asosiy sabablardan biri bu yuqoridagi ta'kidlab o'tilgan mamlakatlar jamiyatida do'stona muhit yaxshi va tizimli shakillantirilgan. Shu sababli ularning ishlash tizimi batafsil o'rganildi va shu bilan birgalikda muammolar ham tahlil qilib o'tildi.

Yangilik va natijalar.

Shu joyda madaniyat uylari terminiga tushuntirish berib ketish lozim. Madaniyat uylari bu – mustaqil jamiyatlar bo'lib, mamlakatdagi turli xil etnoslarni madaniy meroslarini asrash,

muhofaza qilish hamda ularning avlodlariga sof holatda yetkazib berish maqsad qilingan. Ular usha kam sonli etnoslar uchun yig'ilib o'tiradigan joy, ularning o'zaro birlashuvini ta'minlovchi, ta'lim hamda madaniy almashinuv joyi sifatida e'tirof etish mumkin. Bugungi kundagi globalashuv migratsiya va turli-xil madaniyatlarga ega jamiyatlarning paydo bo'lishi natijasida ushbu madaniy uylarning turli xil millatlarning yo'q bo'lib ketishi, o'ziga xos an'analarini saqlab qolishni maqsad qilgan holda ushbu madaniy uylar katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlarining Florida universitetida Qora tanli studentlar madaniy markazlari 1960-yildagi qora tanlilarning noroziliklari natijasida tashkillashtirilgan va bugungi kunda butun mamlakat bo'ylab tarqalgan qora tanli studentlarning xaq-huquqlari uchun kurashish hamda oliy ta'limdagi imkoniyatlarini oshirish ustida ish olib borishadi. Ushbu maqola ushbu madaniy jamiyat uylarining tashkil topishi, ishlash mexanizimini tahlil qilish va ushbu tizimni muvaffaqiyatli holatda tashkil etilgan jamiyatlardagi ishlash jarayonini va samaradorligini tahlil qilishga yo'naltirilgan [Patton., 2006].

Madaniyat uylarining tashkil topish shart-sharoitlari va sabablari.

Yuqoridagi aytilgan fikrlar asosida madaniyat uylari asosan multi-madaniy shart-sharoitlar muhiti hukmron bo'lgan madaniyatlarda tashkil etilib, ularning paydo bo'lishiga quyidagi omillarni keltirib o'tish mumkin bo'ladi. Eng avvalo, xar bir madaniyat vakili o'zining kelib chiqishi, millat sifatini ochib beruvchi atributlarni saqlab qolishga va keying avlodga yetkazib berishga xarakat qiladi. Natijada ular chet el mamlakatlarida o'z millatdoshlari bilan birgalikda tez-tez yig'ilib o'zaro do'stlik aloqa rishtalarini o'rnatishadi. Tadqiqotchi D. Feifere ta'kidlaganidek, madaniyat uylarining funksional vazifalaridan biri bu millatlarning o'zaro ijtimoiylashuvi (sotsiolizatsiya) va shu orqali ularning aloqalari yanada tiklanadi va rivojlanadi [Pfeifere., 2022]. Lekin afsuski ushbu jarayonlar katta hududlar kesimida u qadar muvaffaqiyatli ish bermaydi. Xususan, Kanada va Amerika Qo'shma Shtatlari misolida aytishimiz mumkinki, ularda hudud katta va diasporalarning norasmiy ravishda bitta hududlarda yig'ilish imkoniyati anchayin murakkab. Natijadan ular o'zaro hududlar kesimida yig'iladilar va ma'lum bir cheklangan geografik zonalarini qamrab oladilar [Ulug'bekov, Iyun 2024]. Bu esa madaniy o'ziga xoslikni saqlab qolishda bir qancha cheklovlarni tug'dirib, ularning o'zaro birlashuvini yaxshi olib borish imkoniyatlariga to'sqinlik kiritishi mumkin bo'ladi. Madaniyat uylari bo'lsa rasmiy ravishda ma'lum bir mamlakatda diasporalarga e'lon berilishi orqali, barcha vakillarga xabar yetkazdirilib, keyin tashkil etiladi va bu jarayon ularning birlashuviga, turli xil bayramlarni birga nishonlash va shu orqali o'ziga xos madaniyatlarini saqlab qolish va kelajak avlodga yetkazdirib berishda asosiy omil bo'lib ximat qiladi [Pfeifere., 2022].

Madaniyat uylarining yana bir asosiy funksiyalaridan biri bu diasporaning o'zaro integratsiyalshuviga xizmat qilishidir. Xususan, rivojlangan mamlakatlarga migratsiya jarayonlari yildan-yilga ko'payib bormoqda va natijada diaspora jamiyati a'zolari yildan-yilga ko'payib bormoqda [Safran., 1991]. Safran ta'kidlashicha, diaspora so'zining asl kelib chiqish uzoq o'tmish emas, balki yaqin o'tgan asrdagi yahudiylar jamiyati bilan bog'liq bo'lsa, bugungi XXI asrda diasporaning ma'nosi immigrantlar, jinoyatchilik va qotillik bilan ham bog'lanadi [Safran., 1991]. Natijada yangi kelgan migrantlarning jamiyat a'zosi sifatida e'tirof etilishi va diasporalar tarkibidagi do'stlari bilan yaqin aloqalar o'rnatishda madaniyat uylari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ularga mahalliy til o'rgatish, ish bilan ta'minlash yoki ish topishda yordam berish, ijtimoiy yordam berish va yangi jamiyatga moslashuvini yanada yengillashtirish uchun xizmat qiladi [Patton., 2023]. Hamda etnografik va madaniy ma'lumotlar yosh bolalarning ulg'ayish jarayonida kerak bo'lgan ko'plab xususiyatlar, jumladan, yaratuvchanlik, o'z tengdoshlari bilan suhbatlashish qobiliyatlarini rivojlanishida ham madaniyat uylari alohida ahamiyat kasb etadi [Juréniené., 2012].

Madaniy uylarning yana bir o'ziga xos vazifalaridan biri bu chet eldagi diasporalarga yetarli darajada ta'lim va san'at bilimlarini yoyishdan iborat. Xususan, madaniyat uylarida etnosning madaniyatini, o'ziga xos tarixini ochib beruvchi tadbirlar, konferensiyalar hamda o'z onayurtidagi mashhur haykaltaroshlar, rassomlarning ko'rgazmalarini chet eldagi madaniy uylarda tez-tez namoyish etish usha mamlakatdagi diaspora vakillarining bilm va dunyo qarashlarini rivojlantirishga, o'z madaniyat vakillarining asarlarini tomosha qilishga va o'z madaniyati haqida atroflicha bilimlarni qo'lga kiritishga imkoniyat oshib boradi [Juréniené., 2012].

Mahalliy hukumat va nodavlat tashkilotlarining mamlakatdagi multimadaniyat holatini qo'llab-quvatlash va rivojlantirish kabi imkoniyatlar madaniyat uylari uchun taqdim etiladi. Xususan, Kanada va Amerika Qo'shma Shtatlarida turli xil nodavlat tashkilotlari madaniyat uylari uchun ko'plab miqdorda investitsiya amalga oshirilmoqda [Zhou et al., 2017]. Ularning asosiy maqsadlari mamlakatdagi etnoslar aro paydo bo'lishi ehtimoli bo'lgan nizolarni oldini olishdan iborat bo'lgan. Bizga ma'lumki, yuqorida ta'kidlab o'tilgan davlatlarda juda ko'plab etnoslar istiqomat qiladi va ularning o'zaro hamjihatlikda yashashi, do'stona muhit shakillantirish yuqorida ta'kidlab o'tilgan nodavlat tashkilotlar va xatto hukumatlarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Shu orqali ular o'zlarining asosiy maqsad vazifalari bo'lgan millatlar aro do'stlikka erishadi.

Moliyalashtirish.

Madaniyat uylarning ishlab mexanizmi haqida gap ketganda, eng avvalo ularni moliyalashtirish shart-sharoitlarini tadqiq etish lozim. Xususan, ushbu jarayon turli-xil

davlatlarda turli shart-sharoitlarda amalga oshiriladi. Madaniyat uylari moliyalashtirish nuqtai nazarida 3 ta guruhga bo'linadi. Bular davlat tomonidan moliyalashtiriladigan yoki nodavlat tashkilotlar tomonidan moliyalashtiriladigan uylardir. Shu bilan birgalikda yuqoridagi ikki guruh tarkibiga ham kirmaydigan, nodaromat madaniyat uylari ham mavjud bo'lib, ular asosan turli xil grant dasturlari asosida o'z faoliyatlarini olib borishadi. Bu grantlar mahalliy hokimyat tomonidan ajratilishi yoki usha diasporaning asl mamlakatlari moliyasi tomonidan ta'minlanishi mumkin [Sterngold., 2004].

Albatta yuqoridagi grantlar ham bemaqsad madaniyat uylariga taqdim etilmaydi. Xususan, ular diaspora vakillarining bilmini rivojlantirish yoki turli-xil til va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun quyidagi dastur va mashg'ulotlarni madaniyat uylarida shakllantirishadi. Xususan, til va madaniy meros ko'nikmalarini o'rgatish darslari, madaniy kechalar va festivallar, immigrantlar uchun maslahat va huquqiy yordam berish jamolari tashkil etish, biznes va professional soha vakillari o'zaro aloqa o'rnatishi uchun institutsional funksiya bajarish kabi ko'plab yo'nalishlar shakllantiriladi. Natijada chet el mamlakati yashovchi etnosalar o'z madaniyat uylarida o'zlariga kerak bo'lgan ko'nikmalarni qo'lga kiritishadi. Tashkilotlar shu asosda ularga grant ajratadi [Goddard., 1999].

Yana bir moliyalashtirish usullaridan biri bu mashhur va muvaffaqiyatli madaniyat uylarining turli xil institutlar bilan o'zaro aloqa va hamkorlik o'rnatishi hisoblanadi. Ushbu madaniyat uylari elchixonalar, oliy o'quv yurtlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik o'rnatadilar. Natijada ular o'z etnoslari madaniyatlarini kengroq miqyosda tarqatish imkoniyatlariga ega bo'lishadi.

Albatta butun dunyo bo'ylab bazi mamlakatlarda madaniyat uylari muvaffaqiyatli ishlar olib bormoqda. Jumladan, Kanada mamlakatida joylashgan madaniyat uylari butun dunyo bo'ylab eng muvaffaqiyatli tizimlardan biri sifatida qayd etib o'tish lozim. Xususan, Torontoda joylashgan Multimadaniyat markazi immigrantlar uchun til o'qitish kurslari, huquqiy yordam, turli xil maslahatlar konsulligi va ish topishda ko'maklashish yo'nalishlarda ishlarni amalga oshiradi. Bu esa ularning faoliyatini yaxshi rivojlanishida hamda Kanada mamlakatidagi milatlararo tinchlikni hukm surishida katta ahamiyat kasb etadi [Qadeer., 2016].

Germaniyaning Berlin shahrida joylashgan Butun Dunyo Madaniyat uyi madaniy almashinuv, o'zaro integratsiyani qo'llab quvatlash hamda turli-xil madaniyatlarning o'rtasida o'zaro aloqalarni o'rnatishda muhim platforma vazifasini o'taydi [Bloomfield., 2003].

Madaniyat uylarning ishlash mexanizmi.

Buyuk Britaniyadagi London Madaniyat markazi shaharda joylashgan turli xil etnos vakillari uchun ta'lim seminarlari, jamoaviy dasturlar va turli xil kechalar tashkil etilgan va

madaniy turli etnoslarning o'zaro hamkorlikda ish olib borishlari hamda do'stlik rishtalarini saqlab qolishlari uchun xizmat qiladi [Ulugbekov, June 2024].

Yuqoridagi ta'kidlab o'tilgan mamlakatlarda muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan madaniyat uylari ishlash mexanizmi tahlil qilib chiqildi. Lekin tanganing ikkinchi tomoni ham bor bo'lib, bunda ular ko'pincha duch keladigan muammolar ham mavjud hisoblanadi. Eng keng tarqalgan muamolardan biri bu moliyalashtirishdagi cheklovlar hisoblanadi [Järvinen., 2020]. Juda ko'plab madaniyat uylari stabil bo'lmagan moliyaviy qo'llab quvatlanishlarga ega hisoblanadi. Bu masalaga yechi sifatida hukumatlar va nodavlat tashkilotlar uchun uzoq muddatli dasturlar asosida o'zaro hamkorlik o'rnatish mumkin bo'ladi. Shu bilan birgalikda diasporalar a'zolari doimiy ravishda birgalikda bir joyda yig'ilishi madaniyat uylari uchun qiyin vazifalardan biri hisoblanadi [Järvinen., 2020]. Xususan, rivojlangan mamlakatlarga safar qilgan ko'plab immigrantlarning asosiy vazifasi pul topish va mustaqil o'z hayotini qurishdan iborat. Bunday vaziyatlarda ular madaniyat uylari tomonidan tashkil etilgan turli-xil konferensiyalar, ko'rgazmalarda ishtirok etishi bir qancha murakkabliklarni paydo qiladi. Bunday holatlarda madaniyat uylari diasporalarni bir joyga jamlash, ularni o'zaro birligini ta'minlashda biroz qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu muammoga yechim sifatida, turli xil tekin bayramlarni tashkil etish, kelgan diaspora ishtirokchilariga turli-xil yengiliklar berish kabi ishlarni bajarish darkor. Shu orqali diasporaning keng vakillari bir joyga yig'ilishi va o'zaro aloqalrni yo'lga qo'yish imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Xususan, Londonda 2023 va 2024 – yillar o'tkazilgan "Uzbek Food Culture" festivalida, Buyuk Britaniyada yashab istiqomat qilayotgan ko'plab O'rta Osiyolik immigratnlar o'zaro birlashib, tanishib do'stlashib olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu festivalda o'zbek palovi, milliy kuy va raqslari, milliy liboslar ko'rgazmasi kabi ko'plab ishlar amalga oshirildi. Natijada ko'plab O'rta Osiyo immigrantlari bir tanu bir jon bo'lib, go'zal tadbirni nishonlashdi. Bundan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy jihatdan safar uyishtirilgan immigrantlarni bir joyga to'plash nisbatan qiyinroq va bu masalani xal etishda shu kabi festivallarni tashkil etish juda ham samarali ish ekanligini ko'rib o'tish mumkin bo'ladi [Ulugbekov, Iyun. 2024].

Xulosa

Demak madaniyat uylarining shakillanishi sababi sifatida rivojlangan mamlakatlardagi multi-etnoslar jamiyati o'rtasida do'stlik holatini shakillantirish hamda ularning farovonlikni oshirish maqsad qilinadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, madaniyat uylari va markazlar diasporalarning o'zaro do'stlik va aloqalarini mustahkamlashda, yangi kelgan muhojirlarni mahalliy madaniyat va jamiyatga tez va oson moslashib ketishda ko'mak berish, muhojirlar farzandlarini o'z ona-tili va o'z madaniyatini unutmaslik uchun ta'lim kurslarini tashkil etish va

yoshlarni o'z madaniyati va tili ruhiyati asosida ulg'ayishini maqsad qilishadi. Shu bilan birgalikda madaniyat uylarini moliyalashtirish ham turli xil yo'nalishlarda olib borilib, ularda asosan mahalliy hukumat qo'llab quvatlashi yoki diasporalarning o'z ona vatanlaridagi hukumat qo'llab quvatlashi yordamida ish faoliyatini olib borishadi. Shu bilan birgalikda qo'shimcha tashkilotlarning grant dasturlarini qo'lga kiritish ham madaniyat uylarining qo'shimcha daromad manbayi sifatida e'tirof etish mumkin. Yana bir muhim tomoni bu madaniyat uylari duch kelishi mumkin bo'lgan muammolardir. Eng katta muammolardan biri bu diaspora a'zolarini bir joyga yig'ish masalasidagi muammolar hisoblanadi. Jumladan, rivojlangan mamlakatlardagi turli diasporalar vakillarnining asosiy maqsadi pul topish va tirikchilik bo'lganligi bois, ularni doimo bir joyga jamlashda bir qancha muammolar mavjud. Shu sababli ularni turli xil tadbirlarga jalb etishda yutuqli musobaqalar va konsert dasturlari, tekin milliy taomlar diaspora a'zolarini bir joyga to'plashda samarali natijalarni qo'lga kiritilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Bloomfield, J. (2003). "Made in Berlin": Multicultural conceptual confusion and intercultural reality. *International Journal of Cultural Policy*, 9(2), 167-183.
2. Craik, J. (2005). Dilemmas in policy support for the arts and cultural sector. *Australian journal of public administration*, 64(4), 6-19.
3. Goddard, A. (1999). Culture and drama: The role of financial control systems in the organisational process in three local government organisations. *International Journal of Public Sector Management*, 12(6), 516-532.
4. Järvinen, T. (2020). The challengers of public cultural centres. *Trio*, 9(1), 60-69.
5. Jurėnienė, V. (2012). The role of cultural centres in the fields of children and youth artistic education. *Procedia-Social and Behavioral Sciences*, 51, 501-505.
6. Lundborg, P., & Segerstrom, P. S. (2000). International migration and growth in developed countries: A theoretical analysis. *Economica*, 67(268), 579-604.
7. Patton, L. D. (2006). The voice of reason: A qualitative examination of Black student perceptions of Black culture centers. *Journal of College Student Development*, 47(6), 628-646.
8. Patton, L. D. (Ed.). (2023). *Culture centers in higher education: Perspectives on identity, theory, and practice*. Taylor & Francis.
9. Pfeifere, D. (2022). The issues of defining and classifying cultural centres. *Economics and Culture*, 19(2), 28-37.
10. Qadeer, M. A. (2016). *Multicultural Cities: Toronto, New York, and Los Angeles*. University of Toronto Press.

11. Safran, W. (1991). Diasporas in modern societies: Myths of homeland and return. *Diaspora: A journal of transnational studies*, 1(1), 83-99.
12. Sterngold, A. H. (2004). Do economic impact studies misrepresent the benefits of arts and cultural organizations?. *The journal of arts management, law, and society*, 34(3), 166-187.
13. Ulugbekov O.O. (2024) The uzbek educational migration. Field research. Unpublished manuscript. The Sussex University.
14. Zhou, X., Hristova, D., Noulas, A., Mascolo, C., & Sklar, M. (2017). Cultural investment and urban socio-economic development: a geosocial network approach. *Royal Society open science*, 4(9), 170413.